

QADIMGI XETT PODSHOLIGI

SHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**
SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**
SHDPI 1-KURS TALABASI **Luqmonova Hilola**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Valiyeva Ra'noxon**

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri bōlgan Qadimgi Xett podsholigi va uning paydo bo'lishi va iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayoti, yashash tarzi va Xett xalqlari, hukmdorlari tarixda tutgan o'rni va madaniy siyosiy aloqalari, boshqa davlatlar bilan qilgan munosabatlari haqida so'z yo'ritiladi.

Kalit so'zlar: Xattusi, Nesa, Xattusili, arxivlar, Labarna, iyeoglif, tuliya, Telipen, Sandarm.

АННОТАЦИЯ: Эта статья посвящена одной из самых древних цивилизаций — Древнему Хеттскому царству, его возникновению, экономической, социальной и культурной жизни, образу жизни, народу Хеттов, их правителям, а также роли Хеттского государства в истории, его культурно-политическим связям и отношениям с другими государствами.

Ключевые слова: Хаттуса, Неса, Хаттусили, архивы, Лабарна, иероглифы, Тулия, Телепин, Сандарм.

ANNOTATION: This article discusses one of the oldest civilizations, the Ancient Hittite Kingdom, focusing on its emergence and economic, social, and cultural life, lifestyle, the Hittite people, their rulers, their historical significance, and political-cultural relations with other states. It also covers the relationships they had with other countries.

Keywords: Hattusa, Nesa, Hattusili, archives, Labarna, hieroglyphs, Tuvia, Telipinu, Sandaram.

KIRISH: Xett podsholigi — Kichik Osiyodagi qadimgi davlat (miloddan avvalgi 18—12-asr boshlari). Tarkibiga xetlar, xetlar va boshqa etnik guruhlar kirgan. Xetlar podshosi Anittas davri (taxminan XVIII asr)da Anatoliyaning ba'zi viloyatlari birlasha boshlagan. U Nesa, Xattusas shaharlarini bosib olgan. Kussar shahrini poytaxt qilgan. Qadimgi xett sulolasining asoschisi — Labarna (XVII asr boshlari) Xett podsholigi hududini kengaytirgan. Labarnaning vorisi Xattusilis I davri (XVII asr o'rtalari)da Kichik Osiyoning shimolidagi Salpa shahri va Kichik Osiyoning bir qancha jan.sharqiy viloyatlari batamom bosib olingan. U poytaxtni Xattusasga ko'chirgan. Xattusilis I ning o'g'li Mursilis I (XVII asr oxiri) davrida Xett podsholigining harbiy qudrati nihoyatda oshgan. 14—12-asrlarda Xett podsholari Shimoliy Suriya va Shimoliy Mesopotamiyada yashaydigan xurriy qabilalardan bo'lgan. Podsho Suppiluliumas I (14-asr boshlari) uzoq davom etgan urushlardan keyin Mitanni (Shim. Mesopotamiyadagi qad. davlat)ni bosib olgan. Ugarit (Shimoliy Finikiyadagi qad. shahardavlat)ni o'z vassaliga aylantirgan. Mursilis II hukmronligi (14-asr oxiri)dan boshlab Xett podsholigi bilan Misr o'rtasida Suriya uchun kurash ketgan. 13-asr oxiri — 12-asr boshlarida Xett podsholigi o'zaro urushlar, qaram viloyatlar va ittifoqdosh podsholiklarning ajralib ketishi tufayli inqirozga uchragan. Qad. Xett podsholigining oxirgi yirik podshosi Telepinu (16-asr oxiri) bo'lgan. Kichik Osiyoning sharqiga jan. va g'arbdan xalqarning ko'chib kelishi bilan podsholik barxam topgan.

Xetlar madaniyati - miloddan avvalgi 2-ming yillikda ravnaq topgan Xett podsholigida shakllangan madaniyat. Podsholar qarorgohi bo'lgan Xattusas shahri (Kichik Osiyodagi hozirgi Bog'ozko'y shahri) barcha xett shaharlari kabi doirasimon tarhli, mudofaa devor va inshootlarga alohida ahamiyat berilgan, shaharning qo'sh devori burj, minoralar bilan mustahkamlangan. Binolar haykal, relyeflar bilan bezatilgan. Shahar darvozalarining ikki yoniga ulkan sher haykali, sfinkslar o'rnatilgan. Bog'ozko'y yaqinidagi Yozuvliqoya relyeflari (miloddan avvalgi XVI—XIII asrlar)da sher ustida tik turgan kishilar aks ettirilgan, 2 boshli burgut tasviri gerbni eslatadi. Ba'zi relyeflarda, xetlarning doirasimon tamg'alaridagi kabi, ramziy tasvirlar uchraydi. Miloddan avvalgi 1600 yilda qad. xetlarda haykaltaroshlik, kulolchilik taraqqiy etgan (maye: o'rdakburun shaklidagi ko'zachalar, hayvonlar shaklida ishlangan idishlar, ma'budlar va boshqa tasvirlangan idishlar)

Xetlar — Kichik Osiyoda qadimda yashagan xalq. Xett tilida so'zlashgan. Shuning uchun ham odatda X. yoki ularning avlodlari Kichik Osiyoda Bolqon ("g'arbiy" nazariya) yoki Kavkaz orqali ("sharqiy" nazariya) kelib joylashgan deb hisoblanadi. Qad. Xett podsholigida shaharlarning sharqqa xos uslubda qurilishi X.ning Kavkaz orqali ko'chib kelganini ko'proq tasdiklaydi. Anatoliyaning savdo markazlaridan topilgan akkad tilida yozilgan hujjatlarda xett tiliga mansub so'zlar va shaxs nomlarining uchrashi, X.ning mil. av. 3—2ming yilliklardan boshlab Kichik Osiyoda yashay boshlaganligini ko'rsatadi. Mil. av. 14—12-asrning boshlarida Xett podsholigida xett tili asosiy davlat tili bo'lsada, X. boshqa etnik guruhlar bilan qo'shilib keta boshlagan.

Xett tili — o'z yozuviga ega bo'lgan eng qadimiy hind-yevropa tillaridan biri; xatt, palayya, lidiya va boshqa tillar bilan xett — luviy tillari (anatoliya tillari) guruhini tashkil etgan o'lik til. Xett tilida so'zlashuvchi aholi qadimiy Anatoliyaning markaziy va shimoliy qismlarida yashagan. Xett tili tarixida 3 davr farqlanadi: qadimiy davr (miloddan avvalgi XVIII—16-asrlar), yjDTa davr (miloddan avvalgi XV asr — 14-asr boshi) va yangi davr (miloddan avvalgi 14-asr o'rtalari — 13-asr). Bizgacha yetib kelgan matnlarning aksariyati Yangi podsholik davriga mansubdir. Xett tilining asosiy grammatik xususiyatlari: fe'l qo'shimchalari 2 turga bo'lingan, otlar 2 grammatik jins kategoriyasiga bo'lingan. Leksikasida xatt, akkad va xurrit tillaridan o'zlashgan so'zlar — asosan terminlar ko'p bo'lgan. Xett tili yozuvi — mixxat bo'lib, u shimoliy Suriyadan, ehtimol, qadimiy akkad mixxatidan o'zlashtirib olingan. Yozma yodgorliklari asosan 1906—07 yillardagi arxeologik qazishmalar chog'ida Xattusasdagi (Turkiya, hozirgi Bog'ozko'y) podsholik arxividan topilgan. Miloddan avvalgi II ming yillik boshlarida Kichik Osiyoda, qabilalar ittifoqi asosida hududiy jihatdan uncha katta bo'lmagan shahar - davlatlar vujudga keldi. Bu davlatlar safiga Kanesh, Kussar (Kushshar), Burushand (Burushand), Nesa (Nesha), Xalpa (Zalpuva) va Xattusa (Xattushash) shaharlari kirardi. Bunday shahar -davlatlar shakllanishida Kichik Osiyoda miloddan avvalgi XX-XVIII asrlarda paydo bo'lgan savdo koloniyalari muhim rol o'ynagan. Xalqaro savdo aloqalari shu kabi koloniyalar orqali amalga oshirilardi. Savdoishlarida oltin, kumush, qo'rg'oshin, mis kabi tabiiy boyliklar asosiy o'rin tutgan. Xalqaro savdo aloqalari - Kichik Osiyoning iqtisodiy rivojida muhim omil bo'lgan. Shuningdek, buyerda sudxo'rlikning turli shakllari mavjud bo'lgan. Shahar-davlatlar shohlar tomonidan boshqarilishiga qaramay, ularning ichki ishlar o'zod aholining umumiy majlislarida hal qilingan. Ozod aholi o'rtasidaboy savdogarlar, sudxo'rlar katta mavqeyga ega bo'lgan. 137 Kichik Osiyoda ilk bor alohida yirik davlat tuzishga intilish miloddan avvalgi XVIII asrning birinchi yarmidan boshlanganiniko'ramiz. Kussar shahri hokimi Pitxan (Putxan) qo'qqisidan tunda Nesa shahriga hujum qilib uni bosib oladi. Pitxanning vorisi shoh Anitta poytaxtni Nesaga ko'chirib, bu yerda istehkomlar, ibodatxonalar barpo etadi. Ko'p o'tmay, Xalpa shiddatli janglardan so'ng, Xattusa shahrini bosib oladi. Bundan xabar topgan Burushandshahri hokimi Anittaga o'z xohishi bilan taslim bo'ladi va taxtni topshiradi.

Tez orada Kaneshahri ham Anitta ixtiyoriga o'tadi. Shunday qilib, Anitta yirik davlat hokimi - shohi bo'lib qoladi. Tadqiqotchilar bu davlatga Qadimgi Xett saltanati deb nom berganlar (miloddan avvalgi XVIII-XVI asrlar). Bu davlatda urug' - qabila tuzumi sarqitlari juda kuchli bo'lgan. Davlat ahamiyatiga molik bo'lgan eng muhim masalalarni hal etishda zodagonlar deb atalgan kengash "tuliya" ga yig'ilgan. Zodagonlar ichida shoh oilasi a'zolari, o'g'illari, yaqin qarindoshlari alohida o'rin tutgan. Qadimgi an'analarga ko'ra shohlar shoh oilasi a'zolaridan, ko'proq shoh nabiralaridan, xususan, singillarining o'g'illaridan saylanardi. Xett saltanatini birlashtirish siyosati Anittaning to'rtinchi vorisi shoh Labarna (Tabarna) hukmronligi davrida (miloddan avvalgi 1680-1650 yillar) tugallandi. qudratiga ishongan Labarna mavjud an'anani buzib, taxt vorisi etib o'g'li Xattusili I (miloddan avvalgi 1650-1620 yillar) ni tayinlaydi. Xattusili I poytaxtni Xattusaga ko'chiradi. U o'zidan avvalgi shohlarga xos siyosat yuritib, Shimoliy Suriyaning yirik savdo markazi - Xalpa (Aleppo)ni bosib olishga urinadi. Shoh Mursili I davrida (miloddan avvalgi 1620-1590-yillarga yaqin) Xett saltanatida mamlakatni markazlashtirish jarayoni kuchayadi. Xattusa mamlakatning yagona poytaxti bo'lib qoladi. Boshqa yirik shaharlar, hatto Kussar ham ikkinchi darajali shaharga aylanadi. Mursili I Xalpani egallashga muvaffaq bo'lib, so'ng u janubiy-Sharqqa - Bobil tomon yo'l oladi va miloddan avvalgi 1595- yilda Old Osiyoning bosh markazi ni osonlik bilan bosib oladi. O'zaro ichki kurashlar bir necha o'n yillar davom etib, bu hol Xett davlatining siyosiy mavqeyiga putur yetkazadi. Siyosiy beqarorlikka shoh Telepin davrida (1520-1490-yillar) chek qo'yildi. U qabul qilgan farmonga ko'ra taxt vorisi etib, asosan, shoh farzandi - shahzoda tayinlanar edi. Xett davlatida shoh hokimiyati cheklangan. Telepinning o'limidan so'ng uning o'g'li hukmdorlik qilgan qisqa vaqt ichida Xett davlatida siyosiy beqarorlik boshlanib, taxtni bir necha shahzoda egallaydi. Natijada Xett davlati ancha zaiflashadi. Bu davr O'rta Xett saltanati (taxminan miloddan avvalgi XV asr) nomini oladi. Miloddan avvalgi XIV asr boshlarida Xett saltanatining tiklanish davri boshlanadi. Bu tiklanish Xett hukmdorlari ichida eng ko'zga ko'ringan, tajribali diplomat, qobiliyatli sarkarda shoh Suppiluliumma nomi bilan chambarchas bog'liq. Old Osiyoda qudratli Misr saltanati, Bobil va Mitanni davlatlarining zaiflashuvi oqibatida vujudga kelgan qulay xalqaro vaziyatdan Suppiluliumma ustalik bilan foydalanib, Xett saltanatining qudratini yanada oshirishga muvaffaq bo'ladi. Xetlar harbiy qo'shinida ot qo'shilgan yengil va tezyurar aravalari joriy qilindi. Aravalarda uch jangchi: haydovchi, yoyandoz, qalqon ko'targan askar joylashib, ular dushmanga qaqshatqich zarba berish imkoniga ega bo'lgan. Suppiluliumma poytaxt Xattusu va boshqa shaharlar atrofini qal'alar bilan o'rab mustahkamladi. Mursili II hukmdorligi davrida (miloddan avvalgi 1340-yilga yaqin) Xett davlati yanada kuchaydi. Ushbu hukmdor asosiy dushmani - Arsavi podsholigi bilan keskin kurash olib bordi. Ular o'rtasidagi hal qiluvchi jang Janubiy Frigiyadagi Valma shahrida yuz berdi. Jangda Arsavi qo'shinlari mag'lub bo'lib, shoh Arsavi va uning vorisi qo'shni Axxiyava davlatiga qochib ketishadi. Xett qo'shini Apasu shahrini qo'lga olib, Egey dengiziga qadar chiqadi. Arsavi davlati Xett shohiga tobe bo'lib qoldi. Shunday qilib, Kichik Osiyoning yirik qismi xetlar qo'l ostiga o'tadi. Bu - Xett davlati harbiy qudratining eng yuksalgan davri sifatida tarixda qoldi. Misr va Xett saltanati o'rtasida miloddan avvalgi 1296-yilda tuzilgan sulh Shartnomasiga binoan, Suriyaning katta qismi.

Xetlarda dehqonchilik ikkinchi o'rinda turar va u ob-havoga bog'liq edi. Sun'iy sug'orishdan deyarli foydalanishmagan. Xett saltanatida yirik sun'iy sug'orish inshootlari juda oz bo'lgan. Dehqonchilikda, ko'pincha, arpa yetishtirilgan bo'lib, ba'zan arpa qiymat me'yori vazifasini o'tagan. Arpadan tashqari bug'doy navlari yetishtirilgan, shuningdek, bog'dorchilik, uzumchilik ham bir qadar rivoj topgan. Kichik Osiyoda Shumer, Akkad va Misrdan farqli o'laroq, xurmo daraxtidan faqat manzarali o'simlik sifatida foydalanilgan, chunki tabiiy Sharoitda uning mevasi pishib ulgurmasdi. Shoh mamlakatdagi barcha yerlarning egasi hisoblanib, ularning ma'lum qismi hukmdorning xususiy mulki bo'lgan. Bundan tashqari

ibodatxonalar, jamoalarga tegishli hududlar bor edi. Jamoa yerlarining bir qismi amalda xususiy mulkka aylangan.

Hunarmandchilik ancha rivojlanib, qonunlar va boshqa hujjatlarning guvohlik berishicha, Xett davlatida temirchi, duradgor, konchi, kulol va tikuvchilar bo'lgan. Qurol-aslaha yasashda, asosan misdan, keyinchalik, bronzadan foydalanilgan. Temir, dastlab Kichik Osiyoda topilgan bo'lishiga qaramay, bu davrda xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lmagan. Temirdan, ko'pincha (xaykalcha) diniy urflar maqsadida hamda harbiy qurollar tayyorlanar edi. Hunarmandlar ichida ozod ishchilardan tashqari qullar ham anchagina bo'lgan. Ko'p hunarmandlar shaxsiy ehtiyojlari maqsadida yoki davlat xizmati uchun xo'jalik ishlari bilan ham shug'ullanganlar. Yangi Xett davlatida tashqi savdo rivoj topdi. Uning ustidan davlat nazorati o'rnatildi. Oliy hokimiyat keng miqiyosda iqtisodiyotga aralashar edi. Bu yerda diniy-xo'jalik mahkamalari katta rol o'ynagan. Ular odatda "tosh uylar" deb atalib, ular vafot etgan shohlar tomonidan tashkil qilingan. Mahalliy "tosh uylar" markaziy "tosh uylar"ga bo'ysungan. Ularning ixtiyorida ibodatxona xazinalari, oldi-sotdi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, mirshablar bo'lgan. Rasman bu "tosh uylar" biron-bir ibodatxonaga tegishli bo'lsa-da, amalda podsho yoki uning rafiqasi qaramog'ida edi. "Tosh uy", nafaqat, ma'muriy-moliya ishlari, balki, qisman, harbiy ishlar bilan ham shug'ullangan. Katta-kichik yer egalariga tegishli yerlar ayrim hollarda sotib olingan va sotilgan. Egasi jinoiy ish qilgan yerlar shoh foydasiga musodara qilingan. Muqaddas shaharlarning boshida shoh yoki malika turar, bu shaharlar yerlari podsho mulki hisoblangan. Yangi xett davlatida hukmdorlarni ilohiylashtirish yana kuchaydi. Hukmdor mulkiga qasd qilgan odam qattiq jazo olar, "tosh uy"ni buzgan kishi esa, o'limga hukm qilinib, mol-mulki musodara qilingan. Xett madaniyatiga qadimgi Misr va Mesopatamiya sivilizatsiyalari muayyan ta'sir ko'rsatdi. Xettlar mamlakatida xudolar haqida minglab esdaliklar uchraydi. Masalan, momaqaldiraq xudosi Xattusa shahrining oliy himoyachisi hisoblanib, u bir qo'lida chaqmoq, ikkinchi qo'lida oy bolta tutgan holda tasvirlangan. Xattusada ayol xudo momaqaldiraq xudosining rafiqasi sifatida izzatlangan. Hosildorlik xudolariga e'tiqod keng quloch yoygan. Muqaddas jonivorlar - ho'kiz, sher hamda qushlarga e'tiqod muhim o'rin tutgan. Ba'zan shohlar quyosh xudosi o'xshatilgan.[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI: Ushbu maqolani yoritishda Xett podsholigining markaziy faoliyatiga va shu bilan birga ijtimoiy mavqiyiga ham alohida etibor qaratildi. Abdujabbor Kabirov Qadimgi Sharq TarixiRajabov Ravshan Jahon tarixi. Bu asarda qadimgi sharq Yunoniston Rim haqida malumotlar bor F.Boynazarov .Qadimgi Dunyo tarixi.Rustam Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi.

TADQIQOT METADALOGIYASI:Manbashunoslik,tahliliy taqqoslash ,qiyoslash .

TAHLIL VA NATIJALAR:ett yozma manbalari orasida hukmdorlarning o'ziga xos tarjimai hollari saqlanib qolgan. Ular saroy mirza (kotib)lari tomonidan bitilgan. Xett solnomalarida mamlakat tarixini uch davrga bo'lib tasvirlashga harakat qilingan. Arxivlarda miloddan avvalgi XXIII asr oxirida Kutiy shohi Impakruning Aqqodga qilgan yurishi haqidagi tarixiy doston saqlangan. Xett saltanatida sakkiz mahalliy va chet tillarida so'zlashilgan. Shuning uchun bu yerda uch tilli: shumer - babil - xett lug'atlari mavjud bo'lgan. Shuningdek, ismlarga oid mashhur darslik yozib qoldirilgan. Bu darslik xett tilida yozilib, unda ko'plab qadimgi hind tiliga oid atamalar uchraydi. Xett davlati avvalo harbiy davlat bo'lgani uchun mudofaa, harbiy istehkomlar qurish ishlariga alohida e'tibor berilgan. Shaharlar ikki qatorlik devorlar bilan o'ralgan. Shahar devorlari yirik tosh bloklardan tuzilgan. Xett haykalchalari, bo'rtma naqshlari xurrit haykalchalarini eslatib turgan. Bo'g'oz-Qoya yaqinida arxeologlar tomonidan Xett davlati poytaxti - Xattusa shahri qoldiqlari topilgan bo'lib, bu shahar antiqa me'morchilik namunalari bilan ajralib turadi. Shohlar qo'lida quyosh xudosi hassasini tutgan holda

tasvirlangan. Yazili - Qoyadagi bo'rtma rasmlarda momaqaldiroq xudosi Teshubning shohni o'z o'g'li kabi quchog'iga olib turgani tasvirlangan.[2]

Qadimgi Xett podsholigi Shimoliy Finikiya xetlar ixtiyoriga, Falastin va Janubiy Finikiya esa, Misr ixtiyoriga o'tdi. Ikki davlat o'rtasida savdo aloqalari o'rnatildi. Xett hukmdorining qizi Ramzes II nikohiga o'tdi. Xattusili III bilan Ossuriya o'rtasida to'qnashuvlar boshlandi. XIII asrning oxirlariga kelib "dengiz xalqlari" (Egey dengizi orollari aholisi) nomini olgan qudratli koalitsiya vujudga keldi. Ular Old Osiyoga to'fon kabi yopirildilar. Misr ular hujumini bir amallab qaytargan bo'lsa, Xett davlati ular xurujiga dosh berolmadi. Poytaxt - Xattusa dushman hujumi natijasida taslim bo'ldi. Miloddan avvalgi 1190-yilga yaqin Buyuk Xett davlati inqirozga yuz tutdi. Miloddan avvalgi XII-VIII asrlarda omon qolgan kichik-kichik xett davlatlari Ossuriya tomonidan bosib olindi. Natijada, vaqt o'tishi bilan Xett tili va yozuvi yo'qolib, ularning nomi butunlay unut bo'ldi. Yangi xetlar saltanati davrida iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlar. Yangi xetlar saltanati davrida iqtisodiy, xo'jalik vaijtimoiy munosabatlarni o'rganishdagi asosiy manba - o'sha davrda qabul qilingan qonunlar to'plamidir. Undan ma'lum bo'lishicha, iqtisodiyot asosini chorvachilik tashkil etgan. Xo'jalik ishlarida ishchi qoramollar va yuk tashuvchi ho'kizlarning ahamiyati katta edi[3].

XULOSA VA TAKLIFLAR: Xulosa qilib aytganda, Qadimgi Xett podsholigi nafaqat o'z davrida, balki zamonaviy tarix va madaniyat uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu tsivilizatsiya haqida yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish, insoniyat tarixining boshqa qirralarini tushunishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Takliflar: Tarixiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish: Xetlar tarixi ko'plab sirli va noaniqliklarni o'z ichiga oladi. Ularning madaniyati va siyosiy tizimi haqidagi bilimlarni kengaytirish uchun arxeologik qazishmalar va ilmiy tadqiqotlar davom ettirilishi kerak. Xetlar va boshqa qadimgi tsivilizatsiyalar o'rtasidagi aloqalarni o'rganish: Xetlar boshqa qadimgi tsivilizatsiyalar, masalan, Misr, Assuriya va Babil bilan savdo va diplomatik aloqalar o'rnatgan. Bu aloqalarni o'rganish, Xetlarning ta'sirini va o'zaro aloqalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.F.BOYNAZAROV.<<QADIMGI DUNYO TARIXI >> .TOSHKENT 2002.
- 2.RAJABOV RAVSHAN <<JAHON TARIXI BIRINCHI QISM>> .
- 3.RUSTAM RAJABOV <<QADIMGI DUNYO TARIXI >>
- 4.V.I.AVDIEV.<<QADIMGI SHARQ TARIXI >>.TOSHKENT. 1964.